AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	



KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonida turizm sohasi mintaqaviy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turizm nafaqat aholining madaniy hordiq chiqarishi va bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasi, balki hududning iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash omili sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Mintaqaviy turizmning samarali rivojlanishi, eng avvalo, mavjud rekreatsion resurslar va tabiiy-madaniy salohiyatni to'g'ri baholash hamda ularni ilmiy asosda boshqarishga bog'liq. Shu nuqtai nazardan zamonaviy GIS texnologiyalaridan foydalanish orqali hududiy turizm manbalarini xaritalash, ularning joylashuvi, infratuzilma imkoniyatlari va iqtisodiy ahamiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Sariosiyo tumani misolida mintaqaviy turizmning iqtisodiy ahamiyati, mavjud turistik va rekreatsion resurslarning salohiyati hamda GIS texnologiyalari asosida ularni tahlil qilish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari hududiy turizmni yanada rivojlantirish, investitsion jozibadorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tog' va cho'l landshaftlari bu, maksimal estetik-resurs salohiyatiga ega bo'lgan rekreatsion hudud hisoblandi. Hududning ekologik holati va qo'riqlanadigan hududlar, qo'riqxona va milliy bog'lar tabiatini bir butun holda majmuaviy o'rganish, biologik va geografik jihatdan o'xshash bo'lgan hududlarning tabiiy resurslari va tabiiy sharoitidan oqilona foydalanish turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda muhim omildir. Hozirgi kunda milliy tabiat bog'lari muhofaza qilinadigan va turizm-rekreatsiya maqsadida tashkil etiladi.

Turizmni rivojlantirishda A.P.Durovich va boshqa olimlar tarixiy-madaniy omillarga mintaqadagi turli xil tarixiy-me'moriy yodgorliklar, aholining milliy, madaniy, diniy tarkibining xilma-xilligi va boshqa an'analarni kiritadi. Yu.A. Vedenin tarixiy-madaniy obyektlariga sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi, transport, teatrlar, o'quv muassasalari, sport inshootlari, botanika va hayvonot bog'lari, etnografiya va folklorlar, diqqatga sazovor joylar, hunarmandchilik san'at namunalari, xalq urf-odatlar, bayram marosimlari va boshqa obyektlarini kiritadi [30]. Demak bu yerdagi obyektlarda, turizm va dam olishning barcha turlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqotchi V.I.Krujaln fikriga ko'ra, turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar quyidagilardan iborat: hududning iqtisodiy-geografik o'rni; qabul qiluvchi mamlakat va uning turistlarni asosiy yetkazib beruvchisi bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi; aholining ijtimoiy va kasbiy tarkibi; turistik infratuzilma va turar joy fondlari mavjudligi.... Transport vositalarini takomillashtirish; ma'lum bir hududda, ...xizmatlar uchun narx darajasi, aholining real pul daromadlari, ta'tilning davomiyligi, rekreatsion zonalar va turistik yo'nalishlar to'g'risida reklama va ma'lumotlar ishlab chiqish. Yuqoridagi barcha omillar hududda turizm va rekreatsiya sohasini rivojlanish darajasini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola muallifi tomonidan qiyosiy tahlil, kuzatuv, statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sariosiyo tumani Surxondaryo viloyatining shimolida joylashgan bo'lib, uning geografik o'rni va tabiiy sharoiti viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Tuman hududi shimoldan Hisor, janubi-sharqdan Bobotog', janubi-g'arbdan Boysuntog' bilan o'ralgan. O'zbekistondagi eng baland cho'qqi (Hazrati Sulton - 4643 m) ham aynan shu tuman hududida joylashgan [1].

Sariosiyoning tabiiy sharoiti turli turistik obyektlar barpo etishga undaydi. Uning maftunkor tabiati, tabiat yaratgan mo'jizalarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Hududning turizm imkoniyatlarini ko'rib chiqib u yerdagi salohiyatni hisobga olgan holda GIS texnologiyalari asosida tumanning tabiiy xaritasi [1-rasm] hamda rekreatsiya-turizm marshrutlar xaritasi [2-rasm] ishlab chiqildi. Rekreatsiya-turizm marshrutlar xaritasini mezonlarga ko'ra tuzildi.

Turistik marshrutlar yo'nalishiga ko'ra to'g'ri chiziqli, aylana (halqali) radial va kombinatsiyalashgan tipiga bo'linadi.

Turistik tashkilotlar marshrutlarni oldindan ishlab chiqadi, ularga ma'lum xizmatlar (ovqatlanish, yashash, ekskursiyalar, sport va dam olish tadbirlari, turistlarni transportda tashish va b.) kompleksini kiritadi va shu tariqa turistik marshrutlarni shakllantiradi.



To'g'ri chiziqli marshrut - bu tip marshruti to'g'ri harakatlanish bo'lib, marshrut davomida geografik obyektlarda turli turistik resurslar bilan tanishishidir. Bu marshrut yakunida sayyoh to'g'ri marshrut bo'yicha dastlabki joyiga qaytishi kuzatiladi. Aylana (halqali) marshrut - o'z nomi bilan tanlangan joydan yoki destinatsiyadan turli obyektlarda aylana harakati tushuniladi.

Radial yo'nalishli marshrut - bu shunday marshrut tipi hisoblanadiki, turistning harakatlanishi davomida turistik resursda bo'lishi va qaytishi va boshqa yo'l orqali ikkinchi, uchinchi va hokazo obyektlarga birinchi chiqqan joyiga qaytib yana qayta yangi yo'lga chiqishiga imkon beruvchi marshrut tipi hisoblanadi. Masalan, turist Sariosiyo tumaniga sayohatga chiqadi va u yerda 2 kun davomida sayohatni amalga oshiradi. Mehmonxonada turib, marshrutni Sangardakga 1 kun, yana qaytib mehmonxonaga keladi 2 kun esa Xondizaga boradi va yana Sariosiyo shaharchasidagi mehmonxonaga qaytishi tushuniladi.

Sariosiyo tumani bo'yicha quyidagi sayyohlik marshrut yo'nalishlari ishlab chiqildi.

-Sariosiyo shaharchasi - Sangardak - Xondiza - Sariosiyo shaharchasi;

Yuqoridagi marshrut tuzilishiga ko'ra o'zida chiziqli marshrutlar hisoblanadi.

Bundan tashqari kelajakda amalga oshirish mumkin bo'lgan halqali marshrut yo'nalishi ham ishlab chiqildi.

-Sariosiyo shaharchasi - Hisorak - Kundaijuvoz - Zinchob - Xushxabar - Mizat - Hurvatan- Shotrut - Tamshush - Artush dovoni - Xovat - Zombog' - Xabaro - Billur - Xo'jaosmin - Sariosiyo shaharchasi.


Mazkur maqolada tumanning kelgusidagi turistik marshrut yo'li bo'lib xizmat qiluvchi obyektlarning turizm imkoniyatlari baholandi va tahlil qilindi.

Tumanda bir qancha turistik obyektlar mavjud bo'lib, ulardan eng mashxuri Sangardak qishlog'i haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu yerda yurtimizdagi eng baland sharshara joylashgan va u yirik turistik obyekt hisoblanadi [2].

Sangardak sharsharasi Sariosiyo tumani hududida, Denov shahridan 30 km. va Termiz shahridan 205 km uzoqlikda joylashgan. Sariosiyo tumani, o'zining ichki kontinental subtropik iqlimi bilan mashhur bo'lib, ushbu iqlim, hududda o'ziga xos betakror mikroiklim yaratadi. Sangardak so'zi forscha - "Sang girdak" ya'ni "atrofi toshli" degan ma'noni anglatadi. Dengiz sathidan 3000 metr balandlikdan o'tilib chiquvchi sharshara tabiatning noyob mo'jizasidir. Sharshara suvi 150 metrdan ortiq balanddan atrofdagi qoyalarga urilib oqadi. Sharsharaning o'ng tomonida undan 200 metr balandlikda bir yilda bir marta, faqat Javzo oyida tog' bag'ridan suv oqa boshlaydi. Ushbu suvni mahalliy aholi "Javzo suvi" deb ataydilar. Javzo oyi tugashi bilan, tog' bag'ridan oqayotgan ushbu suv ham tugaydi. Doim barchani hayratga soluvchi bu jumboqli holat haligacha o'rganilmagan. Atrofida anjir, namatak, uzum kabi bir qancha daraxt va butalar o'sadi. Bu hududda tabiat yovvoyi holda saqlangan bo'lib, inson tomonidan zarar yetkazilmagan. Ma'lumotlarga qaraganda, Sangardak sharsharasini hosil qiluvchi buloqning manbayi qoyalar ichidagi ko'lda joylashgan. Sangardak tog'larida yana ko'plab buloqlar joylashgan bo'lib, ular Sangardakbuloq, Shirinbuloq, Qorabuloq, Sirsoybuloq nomlari bilan atalib kelinadi [1]. Buloq suvi tog' yonbag'rlaridagi turli giyoh ildizlarini yuvib chiqqanligi sababli ham inson organizmi uchun shifobaxshlik xususiyatiga egadir. Sharshara nihoyatda maftunkor bo'lib, u bir zumda har qanday kishini o'ziga maftun etadi. Suv shunchalik toza va musaffoki, unga qarab butun vujudingiz pok bo'lganday bo'ladi, xuddiki u sizni o'ziga sehrlab olgandek rom etadi [2].


Sangardak nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyoda o'ziga xos oshuftalik kasb etgan O'zbekistondagi eng baland va go'zal sharshara hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Sangardak sharsharasini hosil qiluvchi buloqning manbai qoyalar ichidagi ko'lda joylashgan. Har yili mavsum boshlandi deguncha, ushbu maskan ziyoratchilar va sayyohlar bilan gavjum bo'ladi. Sangardak sharsharasi "Sharsharamozor", "Shararakmozor" nomlari bilan ham mashhur bo'lib, har yili yoz mavsumida mazkur go'sha ziyoratchilar gavjum bo'ladi. Sangardak sharsharasi yurtimizdagi eng baland va sersuv sharsharalardan biri. Uning ovozi ancha olisdan ham eshitiladi. Bunday paytda sharsharaning yaqiniga borish qiyin. Suv zarralaridan hosil bo'lgan tuman birzumda ustingizni shalabbo qiladi. Suv yil bo'yi tip-tiniq bo'lib oqadigan Sangardak sharsharasi tik qoyadan favvora shaklida toshlar yuzasi bo'ylab pastlikka intiladi. quyiga suv tushgani sayin uning tezligi va shiddati oshadi. Shu tufayli qoya pastidagi toshga suvning bir qismi urilganida baliq ko'zidek oppoq marjon tomchilariga, zarralarga aylanib, tuman hosil qiladi. Bu ajoyib manzara kishilarni oxangraboday maftun etadi. Ular sharsharaning sehrli kuyiga mahliyo bo'lib, bu yerni aslo tark etgisi kelmay qoladi. Saratonning taftida salqin joy izlab kelgan odamlar bu yerda juda ko'plab uchraydi. Yoz faslida havo harorati yuqori bo'lganligi sababli tog'lar cho'qqisidagi qorlar erib, kun sayin soy suvi sathining ko'tarilishiga olib keladi. Bunday paytda pishqirib oqayotgan suv qirg'oqni yuvib, loyqalab oqadi va biroz vahimali ko'rinadi. Daryo bo'ylab yuqorilaganingiz sayin tog'lar tobora balandlashib boradi. Daryo vodiysida eni 20-25 metrlik tor jarlik mavjud bo'lib, jarlik devorlarining balandligi 280-300 metrga yetadi. Ulkan xarsangtoshlar tepangizda xuddi muallaq osilib turgandek go'yo. Ularga qarasangiz boshingiz aylanishi mumkin. Daraga har kuni tush paytida 2-3 soat quyosh nuri tushadi xolos. Qish faslida dara juda sovib

ketadi. Natijada sharshara muzlab qoladi va ajoyib manzara kasb etadi. Sangardak sharsharasining yuqori qismidagi Tojik qishlog'ida Xo'jailg'or ziyoratgohi, bo'lib, unda tuyaning toshga tushirilgan izi bor. Sharsharaning yonida Sharsharamozor ziyoratgohi bo'lib, sharshara va ziyorat uchun respublikamizning ko'plab joylaridan sayyoh va ziyoratchilar kelib turishadi. Shuningdek, sharsharaning yonida, taxminan 100 metr uzoqlikda yana bir kichik sharshara bo'lib, ushbu sharsharaning qachon paydo bo'lganligi, qancha chuqurlik yoki ichkaridan chiqishi haqida ma'lumotlar mavjud emas [3].



1-rasm. Sariosiyo tumanining tabiiy xaritasi

Hazrati Sulton cho'qqisi. O'zbekistondagi eng baland Hazrati Sulton cho'qqisi (4643 m) aynan Sariosiyo tumani hududida joylashgan. Uning nomi Xo'ja Ahmad Yassaviy sharafiga Hazrat Sulton deb atalgan. Yassaviyning nomlaridan biri aynan Hazrat Sulton bo'lgan. Tojikiston bilan shundoqqina chegarada joylashgan bu cho'qqini zabt etish har kimga ham nasib qilmasligi, bu odamdan juda ko'p kuch va sabr talab qiladi. Cho'qqiga tuman hududidan bevosita boorish ancha mashaqqatli bo'lsa-da, biroq mazkur obyekt ham yirik turistik hudud ekanligi ayni haqiqat. Atrofidagi hududlardan tik qurumli qoyalar hosil qilib ko'tarilgan bo'lib, yonidan oqib o'tuvchi vas hu hududdan boshlanuvchi soylar havzasida abadiy qor va muzliklar mavjud. Hazrati Sulton tog'i Hisor tizmasining bevosita davomidir. Hazrati Sulton tog'i Oqsuv daryo vodiysining yuqori oqimigacha davom etib, so'ngra Sumsar va Shertog' tog'lari orqali Zarafshon tizmasi bilan tutashadi hamda bu yerda undan janubi-g'arbga qarab boshqa tarmoqlar ajralib chiqadi. Yilning kata qismida cho'qqi qalin qor bilan qoplangan bo'ladi, shuning uchun alpinistlar uchun biroz murakkab yo'nalish hisoblanadi. Cho'qqi "Hazrati Sulton" nomi bilan atalishi bejiz emas. Mahalliy xalq orasida bu nom muqaddas zot bilan bog'lanadi. Ba'zi rivoyatlarda ulamo yoki avliyo bo'lgan shaxs bu tog' bilan aloqador, shu sababli odamlar uni "avliyo tog'i" sifatida e'zozlaydi. Cho'qqiga olib boruvchi yo'llarda qadimiy ziyoratgohlar va maqbaralar mavjud. Odamlar bu joylarga kelib, duo qilish, niyat qilishadi. Hazrati Sulton nomi bilan ataluvchi boshqa ziyoratgohlar ham O'zbekiston va qo'shni mamlakatlarda ko'p, lekin eng baland cho'qqi sifatida bu joy alohida ramziy ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. Sariosiyo tumanining rekreatsiya-turizm marshrutlar xaritasi

Xondiza qishlog'i. Dengiz sathidan 2500 metr balandlikda joylashgan qishloq hisoblanadi. Aholisi asosan, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. O'zining so'lim tabiati bilan ajralib turadi. Mahalliy aholi yoz faslida dam olish, hordiq chiqarish uchun ushbu qishloqqa tashrif buyurishadi. Hudud Hisor tog' tizmalari bag'rida joylashgan qadimiy maskanlardan biridir. Qishloq tabiati juda go'zal, baland tog'lar, soylar va manzarali daralar bilan o'ralgan. Bu yerning havosi toza, suvlari muzdek buloqlardan chiqadi, shuning uchun ham qadimdan odamlar uchun yashashga qulay bo'lgan. Xondiza tog' oldi hududida joylashgani sababli asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan mashhur bo'lgan [4]. Odamlari mehnatkash, mehmondo'st va an'alariga sodiq. Qishloq atrofi boy tarixiy va tabiiy merosga ega bo'lib, Xondiza nafaqat oddiy yashash joyi, balki sayyohlar uchun ham qiziqarli maskan hisoblanadi.

To'palang daryo sohillaridagi rekreatsion destinatsiyalar. To'palang daryosi sohilidagi Hisorak, Vochax va Kundaijuvoz qishloqlari dengiz sathidan 2500-2800 metr balandlikda joylashgan. Maftunkor tabiati va iqlimi mazkur hududda turistik obyekt yaratish imkonini yaratadi. Vochax va Kundaijuvoz qishloqlariga borish uchun To'palang suv omboridan qayiq qatnovi yo'lga qo'yilgan. Bu hududlarda aholi kam istiqomat qilganligi bois tabiat ne'matlari yaxshi saqlangan. Ob-havosi ham ancha yoqimli va tabiati insonni o'ziga tortadi.

Yuqori To'palang milliy tabiat bog'i. Ushbu milliy tabiat bog'ida 100 ga yaqin umurtqali hayvonlar, 10 dan ortiq sut emizuvchilar, 20 turga yaqin qushlar, 10 dan ortiq turdagi sudralib yuruvchilar, 1 tur suvda va quruqlikda yashovchi va 6 tur hayvonlar sinfiga mansub bo'lgan hayvonlar uchraydi. Shuningdek, yuqoridagilardan, sut emizuvchilarning 9 turi, qushlarning 9 turi, sudralib yuruvchilarning 2 turi, baliqlarning 2 turi hamda umurtqasizlarning 6 turi O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan [4]. 2024-yilda o'tkazilgan "Yuqori To'palang" milliy tabiat bog'idagi media-turda mazkur hududdagi 50 dan ortiq soy va buloqlarning shifobaxshligini mutaxassislar ma'lumot o'rnida qayd etishdi.

Xushxabar qishlog'i. Tumanning ayrim hududlari borki, u yerga avtomobil bilan yetib borishning imkoni yo'q. Ma'lum qismigacha avtomobil hamrohingiz bo'lishi mumkin, ammo, undan keyin faqatgina "To'palang" suv omborini 40 daqiqadan 1 soatgacha bo'lgan vaqt oraliqida maxsus katerlar yordamida kesib borish mumkin. Xuddi shunday manzillardan biri Sariosiyo tumanidagi mo'jazzgina Xushxabar qishlog'idir. Qishloqqa yetib borish uchun "To'palang" suv ombori orqali motorli qayiqlarda uzoq yo'l bosilgach, quruqlikka chiqiladi va u yerdan



manzilgacha faqat ot-ulovda yoki yayov boriladi. Go'zal tabiat qo'ynidagi bu go'sha Hisor tog' tizmalarining 4 688 metr balandlikdagi Hazrati Sulton cho'qqisi etaklarida, Maland, Karsh kabi tog' qishloqlaridan ham yuqorida joylashgan. Bu yerda 7 xonadonda 65 nafar fuqaro istiqomat qiladi. Qishloq aholisining asosiy daromad manbai dehqonchilik va chorvachilikdan iborat [5].

To'palang suv ombori. To'palang daryosida qurilgan yirik gidrotexnika inshooti. 1982-yilda suv ombor qurilishi boshlangan. Asosan, sug'orish va gidroenergetika maqsadlariga xizmat qiladi. Suvombori o'zanli tipda. To'g'on uzunligi 410 metr, balandligi 165 metr, yana 22 metr yer ostiga poydevor qilingan bo'lib, ikkalasi qo'shilganda 187 metrni tashkil etadi. To'liq sig'imi 500 mln. m³, foydali sig'imi esa 470 mln. m³ ni tashkil etadi. Mazkur suv omborining tevarak atrofi shunchalar go'zal manzara kasb etgan-ki, ushbu hududlarda xuddi Chorvoq suv omboridagi kabi turistik markazlar barpo etishga yetarli salohiyat borligini isbotlaydi [6].

1-jadval. Sariosiyo tumanida joylashgan ayrim turistik-rekreatsiya obyektlari

Turistik-rekreatsiya obyekti nomi	Turistik-rekreatsiya obyektiga tavsif.
Sangardak sharsharasi	Sangardak sharsharasi Sariosiyo tumani hududida, Denov shahridan 30 km va Termiz shahridan 205 km uzoqlikda joylashgan. Bu joylardagi adirlar va tepaliklar yam-yashil o'simliklar bilan qoplangan. Sangardak so'zi forscha – "Sang girdak" ya'ni "atrofi toshli" degan ma'noni anglatadi. Dengiz sathidan 3000 metr balandlikdan o'tilib chiquvchi sharshara tabiatning noyob mo'jizasidir. Sharshara suvi 150 metrdan ortiq balanddan atrofdagi qoyalarga urilib oqadi. O'zbekistondagi eng baland sharshara hisoblanadi.
Hazrati Sulton cho'qqisi	O'zbekistondagi eng baland Hazrati Sulton cho'qqisi (4643 m) aynan Sariosiyo tumani hududida joylashgan. Atrofidagi hududlardan tik qurumli qoyalar hosil qilib ko'tarilgan bo'lib, yonidan oqib o'tuvchi va hu hududdan boshlanuvchi soylar havzasida abadiy qor va muzliklar mavjud. Hazrati Sulton tog'i Hisor tizmasining bevosita davomidir. Hazrati Sulton tog'i Oqsuv daryo vodiysining yuqori oqimigacha davom etib, so'ngra Sumsar va Shertog' tog'lari orqali Zarafshon tizmasi bilan tutashadi hamda bu yerda undan janubi-g'arbga qarab boshqa tarmoqlar ajralib chiqadi.
Xondiza qishlog'i	Dengiz sathidan 2500 metr balandlikda joylashgan qishloq hisoblanadi. Aholisi asosan, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. O'zining so'lim tabiati bilan ajralib turadi. Mahalliy aholi yoz faslida dam olish, hordiq chiqarish uchun ushbu qishloqqa tashrif buyurishadi.
To'palang daryo sohillaridagi rekreatsion destinatsiyalar	To'palang daryosi sohilidagi Hisorak, Vochax va Kundaijuvoz qishloqlari dengiz sathidan 2500-2800 metr balandlikda joylashgan. Maftunkor tabiati va iqlimi mazkur hududda turistik obyektlar yaratish imkonini yaratadi. Vochax va Kundaijuvoz qishloqlariga borish uchun To'palang suv omboridan qayiqchilarga chiqish talab etiladi.
Bog'cha, Karsh va Nilu qishloqlari	Dengiz sathidan 2800-3000 metr balandlikda joylashgan.
Xo'jasiddiq, Zinchob, Mezot, Hurvatan, Chosh qishloqlari	Dengiz sathidan 2000-3000 metr balandlikda joylashgan. Asosan, daryo va soylar bo'yida joylashgan qishloqlar hisoblanadi.

Kishtut qishlog'i. Sariosiyo tumani markazidan ancha olisda, Hazrati Sulton cho'qqisi etaklarida joylashgan mazkur qishloq haqiqiy Shveytsariyani eslatadi. Bu yerda xuddi ertaklardagidek tangadek soya tushmaydigan qalin o'rmonlar, birmuncha salqin iqlim va o'ta go'zal tabiat mavjudligi aqlni shoshirib qo'yadi. Tevarak atrof tik qoyalar bilan o'ralgan. Soy va buloqlar talaygina. Kishtut daryosi bo'yida joylashgan qishloq hisoblanadi. To'palangdaryoning yirik chap irmog'i hisoblanadi. Hisor tizmasining janubi-g'arbiy yon bag'ridagi kichik muzlikdan boshlanadi. Uzunligi 50 km, havzasining maydoni - 719 km². Kishtutdaryo yonbag'irlari baland va tik, ayrim joylarda tor vodiya, nishabi katta o'zanda oqadigan daryo hisoblanadi. Etak qismida vodiysi kengroq, yonbag'irlari ham ancha past va yotiqdir. Kishtutdaryo havzasida yog'in ko'p yog'adi, bundan tashqari kichik muzliklar ham bor [5].

Ayg'irko'l - Hisor tog'idagi ko'l. Dengiz sathidan 2400 m balandlikda joylashgan. Ayg'irko'lning yoz chillasida maydoni 100 ming m² gacha kengayadi. Shu davrda chuqurligi 30 metrdan ortadi. Mazkur ko'l tog' muzliklarining erishidan vujudga kelgan. Ko'l suvi toza, atrofi xushmanzara. Ko'lda gulmohi (forel) balig'i yashaydi [3].

Xulosa va takliflar. Aytish joizki, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanining turizm salohiyati juda yuqori. Lekin uzoq yillar davomida bundan yetarlicha foydalanilmadi. Bahavo tabiat, qulay iqlim va yilning barcha faslida maroqli hordiq chiqarish imkoniyati bo'lsa-da, hududda sayyohlarni jalb etadigan yirik va zamonaviy loyihalar amalga oshirilmadi. Bugun Sariosiyo tumanida turistik hududlarni tashkil etish bilan bir vaqtning o'zida qator muhim masalalarni hal qilish ko'zda tutilgan. Sariosiyo kabi maskanlarga O'zbekistonning barcha hududlaridan



yurtdoshlarimiz kelib hordiq chiqarishi orqali hududda rekreatsiya va turizmni yanada rivojlantirish mumkin. Bu yerning tog'li relyefi, Hazrati Sulton cho'qqisi kabi yurtimizning eng baland nuqtasi, Xondiza, Hisorak, Tamshush kabi tog' qishloqlari va ulardagi tabiiy manzaralar ichki va tashqi sayyohlarni jalb qilish uchun qudratli resursdir. Eng avvalo, ekologik va tog' turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki bu yerning tabiati asl holida deyarli saqlanib qolgan. Ikkinchidan, ziyorat turizmini yo'lga qo'yish ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki Hazrati Sulton cho'qqisi mahalliy aholining diniy e'tiqodlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, Sariosiyo tog' qishloqlarida mehmon uylari va milliy uslubdagi sayyohlik xizmatlarini tashkil qilish orqali turistlarga qulay sharoit yaratish mumkin. Yo'llarni ta'mirlash, tog' yo'laklarini belgilash, gidlar tayyorlash va reklama kampaniyalarini olib borish ham turizmni kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tumandagi mahalliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi va milliy taomlarni turizm dasturlariga qo'shish orqali sayohatni yanada mazmunli qilish mumkin. Xulosa qilib aytganda, Sariosiyo turizmini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy foyda, balki hududning ijtimoiy-madaniy hayotini ham jonlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. To'rayev Q.T., Sattarov A.U. Surxondaryo viloyati turizmi va uning istiqbollari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 2017. 49-jild. - B. 127-128.
2. A.Sattarov. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlari. Toshkent: 2021.
3. Sariosiyo (o'tmishi va buguni) tarixiy,hujjatli, badiiy risola. T - "Muharrir" nashriyoti, 2013.
4. Surxondaryo viloyati "O'lkashunoslik" atlas.
5. www.kun.uz veb-sayti.
6. www.uzbektourism.uz veb-sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>